



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - may

VI-61-92-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tumanida 2023-yilning 1-choragida “Ayollar daftari”ni namunali yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli hal etish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-sonli Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Angor tumanida 2023-yilning 1-choragida “Ayollar daftari”ni namunali yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli hal etish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimining o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Sh.N.Rajabovanning hisobotini tinglab, muhokama qilib, mazkur yo‘nalishda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga doir vazifalarning to‘liq bajarilishini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24–moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angor tumanida 2023-yilning 1-choragida “Ayollar daftari”ni namunali yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli hal etish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi tuman hokimining o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Sh.N.Rajabovanning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Angor tumanida 2023-yilda «Ayollar daftari»ni namunali yuritish orqali xotin-qizlarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy, shuningdek, hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish, muammolarini tizimli hal etish, bandligini ta‘minlash maqsadida qabul qilingan “Yo‘l xaritasi” ijrosi tizimli amalga oshirilayotgani inobatga olinsin.

3. Angor tuman hokimining o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Sh.N.Rajabova va har bir mahalla xotin-qizlar faollariga:

- 2023-yil davomida «Ayollar daftari»ni namunali yuritish orqali xotin-qizlarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy, shuningdek, hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish, muammolarini tizimli hal etish, bandligini ta‘minlashga qaratilgan “Yo‘l

xaritasi” ijrosi ta’minlab borish;

- «Ayollar daftari» jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan «Ayollar daftari» jamg‘armasi Vasiylik kengashi qaroriga muvofiq boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand xotin-qizlarga moddiy yordam ajratish, zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida og‘ir turmush sharoitidagi (uy-joyini ta’mirlashga muhtoj, biroq oilasining moddiy imkoniyati yetmaydigan) xotin-qizlarning uy-joyini ta’mirlash;

- ijtimoiy yordamga muhtoj I va II-guruh nogironligi bo‘lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlarga bir martalik moddiy yordam berish;

«Ayollar daftari» ro‘yxatiga kiritilgan xotin-qizlarga ularning murojaatiga asosan huquqiy, tibbiy va psixologik yordam ko‘rsatish;

- uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlarning ijara kompensatsiyasini to‘lash, ijtimoiy uylarga joylashtirish, uy-joy bilan ta’minlash;

- qarmog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi mavjud, ehtiyojmand xotin-qizlarga bir martalik moddiy yordam berish;

- sektor rahbarlari, tuman mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi hamda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi bilan birgalikda mavjud vakansiya va zaxira (kvota) ish o‘rinlariga hamda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga xotin-qizlarni ishga joylashtirish;

- tumandagi bank muassasalari bilan hamkorlikda: «Ayollar daftari»ga kiritilgan, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan xotin- qizlarni tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish, muammolarini tizimli hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun beriladigan kredit, subsidiya olishida ko‘maklashish;

- tadbirkorlik va o‘zini-o‘zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan xotin-qizlarga asbob-uskuna, mehnat qurollari (tikuvchilik, to‘qimachilik, pazandachilik, soch turmaklash va boshqa sohalarda ishlatiladigan mehnat qurollari va apparatlarini) xarid qilish uchun subsidiya ajratilishida ko‘maklashish;

- «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarga turar joy ijara kompensatsiyasi talabnoma hamda sektor rahbarlari va tuman oila va xotin-qizlar bo‘limining xulosasi asosida belgilangan tartibda to‘lab berish;

- Sektorlar ishchi guruhlari tomonidan tegishli mutaxassislar jalb qilingan holda, «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarning uy-joyi holatini o‘rganib, nuqson dalolatnomasi asosida ta’mirlash yoki qurilish materiallarini olib berish;

- «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarni hayotning barcha jabhalarida qo‘llab-quvvatlash hamda ularga ko‘maklashish davom ettirilsin.

4. Angor tuman hokimining o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i (Sh.Rajabova) mazkur qarorning ijrosi bo‘yicha har chorakda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari Angor tuman Kengashiga yozma hisobot berib borsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi “Ayollar daftari” jamg‘armasi daromadlarining barqaror shakllantirilishi va o‘z vaqtida moliyalashtirilishini doimiy nazorat qilib borish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi (G.Jumayeva) tumanda “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash Angor tuman hokimining o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i (Sh.Rajabova)ga, nazorati xalq deputatlari Angor tuman Kengashining yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo‘ziyeva) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Q.Mardonov